QASHQADARYO VILOYATI G‘UZOR TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

O‘zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G‘uzor shahri, Mustaqillik ko‘chasi, 14-uy.Tel:75.552-13-60

2022 - yil 10 - avgust 308-4-56-Q/22 G‘uzor tuman hokimligi

G‘uzor tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi qarorini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. G‘uzor tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qaror ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati mazkur qarorni rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Jovliyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Suyunov**

G‘uzor tuman hokimining
2022 yil 10 avgustdagi
308-4-56-Q/22-son qaroriga
1-ilova

G‘uzor tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan

QARORI

G‘uzor tuman hokimining “G‘uzor tumanida maktab yoshiidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 2021-yil 27-avgustdagi 206-4-56-Q/21-sonli qarori.